

V SHO'BA

ISLOM MOLIYASI, XULQ-ATVOR MOLIYASI VA MOLIYA BOZORIGA OID BOSHQA MUQOBIL YONDASHUVLAR ASOSIDA INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARINING MIKROMOLIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi (PhD) doktoranti

Bugungi kunda mikromoliya tashkilotlari aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish imkoniyatini yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, Islom moliya instrumentlari mikromoliya sohasida yangi imkoniyatlarni taqdim etib, ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi³¹². Bizning fikrimizcha, Islom moliyasi mikromoliya tashkilotlarining samaradorligini oshirish va ularning kengroq qamrovga ega bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu moliya tizimi shaffoflik, adolat va sheriklik tamoyillariga asoslanib, moliyaviy xizmatlardan foydalanishda yangi yondashuvlarni taklif qiladi. Masalan, qarzi hasan (foizsiz qarz), murobaha (narx ustamolari asosida moliyalashtirish), ijara (ijaraga asoslangan moliyaviy mexanizm), mudoraba (daromad taqsimoti asosida sheriklik) va mushoraka (hamkorlikka asoslangan investitsiya) instrumentlari kichik biznes egalarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni oshirishda samarali bo'lishi mumkin³¹³.

Shuningdek, so'nggi yillarda Islom moliyasida ijtimoiy moliyalashtirish modellaridan, jumladan, vaqf va zakot mablag'laridan foydalanish amaliyoti kengayib bormoqda. Bu mikromoliya tashkilotlarining faqat tijoriy emas, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham muhim vosita ekanligini ko'rsatadi³¹⁴.

Islom mikromoliya tashkilotlari (IMMT) moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, kambag'alchilikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, musulmon mamlakatlarida bu tashkilotlar aholining keng qatlamlarini qamrab olish va ularning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Islom mikromoliya tashkilotlari o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishda ham

³¹² Ali, H. (2024). Islamic microfinance: landscape, models and future prospects. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

³¹³ Khairunnisa, S., Muzayanah, I. F. U., & Kasri, R. A. (2019). Impact of islamic microfinance on quality of life: Maqasid Al-Shariah approach. In Challenges of the global economy: Some Indonesian issues (pp. 205-227). Nova Science Publishers, Inc..

³¹⁴ Redzuan, N. H., Kassim, S., Rosman, R., Muhammad Zuki, M. F., & Shaharuddin, S. S. (2023). Potential of Islamic Microfinance: Issues, Challenges, and Way Forward. In Islamic Sustainable Finance, Law and Innovation: Opportunities and Challenges (pp. 157-166). Cham: Springer Nature Switzerland.

islom moliyasining isstrumentlaridan foydalangan holda faoliyat olib boradi. 1-jadvalda IMMT tomonidan taqdim etiladigan mikromoliya mahsulotlarini ko'rish mumkin.

1-jadval.

Islom mikromoliya xizmatlarining turlarining tavsifi³¹⁵

Moliyaviy xizmat turlari	Foydalanilishi	Mijoz riski	IMT riski	Izoh
Mudoraba/ Mushoraka	Asosiy vositalar va uy sotib olish	Past	Juda baland	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari qimmat, amaliyotda kam ishlatiladi
Ijara	Asosiy vositalar sotib olish	Baland	O'rtacha	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari arzon, shuning uchun ham amaliyotda ko'p qo'llaniladi
Murobaha	Uzoq va qisqa aktivlar sotib olish	Baland	O'rtacha	Boshqaruv va nazorat qilish xarajatlari arzon, to'lash tizimi ham oson, shuning sababli, eng ko'p qo'llaniladigan xizmat hisoblanadi
Qarzi hasan	Hamma maqsadlarda	Juda past	O'rtacha	Asosan ehson mablag'laridan moliyalashtiriladi va chegaralangan bo'ladi
Salam	Aylanma mablag'	Baland	Baland	Ushbu xizmat qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi, ayniqsa fermerlar uchun muhim ahamiyatga ega
Istisno	Asosiy vositalar sotib olish	Baland	Baland	Islom moliyasidagi eng moslashuvchan va qulay mahsulot hisoblanadi

Islom mikromoliya tashkilotlarining (IMMT) asosiy funksiyalari:

1. Kambag'alchilikni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirish. IMMT an'anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholi va kichik bizneslarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatib, moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qiladi³¹⁶. Shuningdek, foizsiz qarz va shariatga mos moliyaviy mahsulotlar taklif qilinib, diniy tamoyillarga amal qiluvchi kishilar uchun qulay moliyaviy yechimlar yaratiladi³¹⁷.

³¹⁵ Tursunov A.S. Islomiy mikromoliyalashda "Vaqf" xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo'llari. Monografiya. T.: "Lesson Press", MCHJ nashriyoti 2023 – 194 b.

³¹⁶ Ali, H. (2024). Islamic microfinance: landscape, models and future prospects. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

³¹⁷ Khan, A., Zaidi, S. B., Mahmood, A., & Khan, S. (2024). Achieving Social Well-Being and Financial Inclusion Through Islamic Microfinance: A Case Study of Akhuwat Islamic Microfinance. In The Future of Islamic Finance: From Shari'ah Law to Fintech (pp. 83-102). Emerald Publishing Limited.

2. Mikro-tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. IMMT mikro-tadbirkorlarni qarzi hasan, murobaha, mudoraba kabi moliyaviy instrumentlar yordamida qo'llab-quvvatlaydi³¹⁸. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar tadbirkorlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bilan birga, bepul tibbiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ham ko'rsatadi³¹⁹.

3. Maqasid al-Shariah tamoyillarini amalga oshirish. Islom mikromoliya tashkilotlari Islomning prinsiplariga (Maqasid al-Shariah) erishishga yordam beradi. Ular kambag'allarning yashash sharoitlarini yaxshilash, ularni uy-joy bilan ta'minlash, sanitariya sharoitlarini yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan³²⁰.

4. Islom ijtimoiy moliyaviy instrumentlaridan foydalanish. IMMT o'z faoliyatida zakot (xayriya solig'i), vaqf (vaqf mablag'lari), sadaqa (ehson) kabi Islom ijtimoiy moliya instrumentlaridan foydalanadi³²¹. Ushbu manbalar orqali kambag'allar va ishsizlarga yordam beriladi hamda mikro-biznes loyihalari qo'llab-quvvatlanadi.

5. Raqamli texnologiyalar va FinTech integratsiyasi. IMMT xizmatlarini yaxshilash va ko'lamini kengaytirish maqsadida raqamli texnologiyalar va FinTechdan foydalanadi. Mobil bank xizmatlari va boshqa raqamli platformalar orqali moliyaviy xizmatlar aholiga yanada qulayroq tarzda yetkaziladi³²².

IMMT moliyaviy inklyuziyani oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ahamiyati ilmiy doiralarda turlicha baholanmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar IMMT iqtisodiy rivojlanishning muhim vositasi ekanini ta'kidlasa, boshqalar ularning samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va huquqiy cheklovlariga e'tibor qaratadi. Quyida IMMTning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, shuningdek, barqarorligi yuzasidan ilmiy bahs-munozaralar keltiriladi.

1. Iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Islom mikromoliya tashkilotlari kam ta'minlangan qatlamlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiy rivojlanishga hamda Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ga erishishga hissa qo'shadi³²³. Ushbu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

³¹⁸ Abdalla, R. A., Alaaraj, H. K., & Mulla, G. S. (2024). The Contribution of Islamic Banking and Finance to the Sustainable Development Goals of 2030. In *Sustainable Innovations in Management in the Digital Transformation Era* (pp. 249-261). Routledge.

³¹⁹ Khan, A., Zaidi, S. B., Mahmood, A., & Khan, S. (2024). Achieving Social Well-Being and Financial Inclusion Through Islamic Microfinance: A Case Study of Akhuwat Islamic Microfinance. In *The Future of Islamic Finance: From Shari'ah Law to Fintech* (pp. 83-102). Emerald Publishing Limited.

³²⁰ Khairunnisa, S., Muzayanah, I. F. U., & Kasri, R. A. (2019). Impact of islamic microfinance on quality of life: Maqasid Al-Shariah approach. In *Challenges of the global economy: Some Indonesian issues* (pp. 205-227). Nova Science Publishers, Inc..

³²¹ Alrashedi, M. Y., & Mohammed, M. O. (2021, November). Developing social financial resources model for Islamic microfinance to reduce unemployment rate. In *International conference on business and technology* (pp. 925-943). Cham: Springer International Publishing.

³²² Amran, A. M., Mohamed, I. S., Yusuf, S. N. S., & Rozzani, N. (2019). Financial and social performances of Islamic microfinance service provider with mobile banking. *International Journal of Financial Research*, 10(5), 181-190.

³²³ Khairunnisa, S., Muzayanah, I. F. U., & Kasri, R. A. (2019). Impact of islamic microfinance on quality of life: Maqasid Al-Shariah approach. In *Challenges of the global economy: Some Indonesian issues* (pp. 205-227). Nova Science Publishers, Inc..

2. Ijtimoiy farovonlikni oshirish. IMMT ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini amalga oshirish orqali farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Ularning asosiy maqsadi kambag'alchilikka qarshi kurashish, daromad taqsimotini adolatli ta'minlash va aholining iqtisodiy faolligini oshirish hisoblanadi³²⁴. IMMTning ishlash prinsiplari Islom axloqiy qadriyatlariga asoslangan bo'lib, ijtimoiy himoya, g'amxo'rlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi.

3. Barqarorlik va o'sish. IMMTning uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanishi muhim ilmiy muhokama mavzularidan biri hisoblanadi. Bir tomondan, IMMT kapital bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega emasligi sababli, ularning moliyaviy mustahkamligi tijorat banklariga qaraganda zaifroq bo'lishi mumkin³²⁵. Boshqa tomondan, IMMTning moliyaviy faoliyati spekulativ operatsiyalardan holi bo'lgani sababli global moliyaviy inqirozlar davrida ularning barqarorligi nisbatan yuqori bo'lishi mumkinligi kuzatilgan³²⁶.

IMMTning samarali ishlashi uchun regulativ tizimni mustahkamlash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish va raqamli moliya texnologiyalarini joriy etish muhimdir³²⁷. Masalan, Malayziya, Indoneziya va Bahrayn kabi mamlakatlarda IMMTning moliyaviy infratuzilmasini takomillashtirish orqali ularning barqaror rivojlanishi ta'minlangan³²⁸.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, Islom mikromoliya tashkilotlarining ahamiyati va samaradorligi bahsli mavzu hisoblanadi. Ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ular muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ijtimoiy farovonlikka ta'siri bo'yicha IMMT kambag'alchilikka qarshi kurashish va moliyaviy inklyuziyani ta'minlashda samarali vosita bo'lishi mumkin, ammo ularning moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan. Shunday qilib, Islom mikromoliya tashkilotlarining istiqbolli rivojlanishi tartibga soluvchi huquqiy islohotlar, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish kabi omillarga bog'liq. Shu bilan birga, ularning real iqtisodiyotga ta'siri doimiy ravishda ilmiy tahlil va amaliy kuzatuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdalla, R. A., Alaaraj, H. K., & Mulla, G. S. (2024). The Contribution of Islamic Banking and Finance to the Sustainable Development Goals of 2030. In *Sustainable Innovations in Management in the Digital Transformation Era* (pp. 249-261). Routledge.

³²⁴ Ali, N., & Abdul Rahman, R. (2013). Financing the poor, sustaining the provider: Issue on transaction cost in microfinance program. *Middle-East Journal of Scientific Research*, 18(4), 512-516.

³²⁵ Ali, H. (2024). Islamic microfinance: landscape, models and future prospects. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

³²⁶ Azman, N. H. N., Zabri, M. Z. M., & Kepili, E. I. Z. (2021). Nexus between Islamic microfinancing and financial wellbeing of micro entrepreneurs during the covid-19 pandemic in Malaysia. *Jurnal Ekonomi Malaysia*, 55(1), 135-146.

³²⁷ Siti-Nabiha, A. K., & Norfarah, N. (2020). Performance of Islamic microfinance institutions: accounting for well-being. *Global Journal Al-Thaqafah*, 10(2), 38-46.

³²⁸ Ali, N., & Abdul Rahman, R. (2013). Financing the poor, sustaining the provider: Issue on transaction cost in microfinance program. *Middle-East Journal of Scientific Research*, 18(4), 512-516.

2. Ali, H. (2024). *Islamic microfinance: landscape, models and future prospects*. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.
3. Ali, N., & Abdul Rahman, R. (2013). Financing the poor, sustaining the provider: Issue on transaction cost in microfinance program. *Middle-East Journal of Scientific Research*, 18(4), 512-516.
4. Alrashedi, M. Y., & Mohammed, M. O. (2021, November). Developing social financial resources model for Islamic microfinance to reduce unemployment rate. In *International conference on business and technology* (pp. 925-943). Cham: Springer International Publishing.
5. Amran, A. M., Mohamed, I. S., Yusuf, S. N. S., & Rozzani, N. (2019). Financial and social performances of Islamic microfinance service provider with mobile banking. *International Journal of Financial Research*, 10(5), 181-190.
6. Azman, N. H. N., Zabri, M. Z. M., & Kepili, E. I. Z. (2021). Nexus between Islamic microfinancing and financial wellbeing of micro entrepreneurs during the covid-19 pandemic in Malaysia. *Jurnal Ekonomi Malaysia*, 55(1), 135-146.
7. Khairunnisa, S., Muzayanah, I. F. U., & Kasri, R. A. (2019). Impact of islamic microfinance on quality of life: Maqasid Al-Shariah approach. In *Challenges of the global economy: Some Indonesian issues* (pp. 205-227). Nova Science Publishers, Inc.
8. Khan, A., Zaidi, S. B., Mahmood, A., & Khan, S. (2024). Achieving Social Well-Being and Financial Inclusion Through Islamic Microfinance: A Case Study of Akhuwat Islamic Microfinance. In *The Future of Islamic Finance: From Shari'ah Law to Fintech* (pp. 83-102). Emerald Publishing Limited.
9. Redzuan, N. H., Kassim, S., Rosman, R., Muhammad Zuki, M. F., & Shaharuddin, S. S. (2023). Potential of Islamic Microfinance: Issues, Challenges, and Way Forward. In *Islamic Sustainable Finance, Law and Innovation: Opportunities and Challenges* (pp. 157-166). Cham: Springer Nature Switzerland.
10. Siti-Nabiha, A. K., & Norfarah, N. (2020). Performance of Islamic microfinance institutions: accounting for well-being. *Global Journal Al-Thaqafah*, 10(2), 38-46.
11. Tursunov A.S. Islomiy mikromoliyalashda “Vaqf” xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo’llari. Monografiya. T.: “Lesson Press”, MCHJ nashriyoti 2023 – 194 b.

O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISLOM IQTISODIYOTI VOSITALARI ORQALI AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR TAHLILI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti,

Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 5 trln AQSH dollaridan oshishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo'lgan to'siqlarga qaramay, hukumatlarning qo'llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya